

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
rektori

I. Madjidov
“10” 02 2026-yil

**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN FALSAFA FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)**

Toshkent - 2026

Tuzuvchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrası mudiri, PhD, dotsent A.Tulyaev

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrası o'qituvchisi, PhD Y.Avazzonov

Taqrizchilar:

Toshkent davlat texnika universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası falsafa fanlari doktori (DSc), professor f.f.d., professor N.R.Nishonova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrası falsafa fanlari doktori (DSc), professor X.P.To'xtayev

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil ____ - ____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Falsafa fani bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriyat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan imtihon dasturi amaldagi ta'lim dasturlarida belgilangan falsafiy bilimlar, tushunchalar va nazariy yondashuvlar asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

"Falsafa" bo'yicha kasbiy (suhbat) imtihonlar abituriyentlarning falsafiy bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi, nazariy g'oyalarni tahlil qila olishi, ularni ijtimoiy hayot va amaliy jarayonlar bilan bog'lay bilishi, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

"Falsafa" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning falsafa sohasiga bo'lgan qiziqishi, nazariy tayyorgarligi, falsafiy dunyoqarashi hamda mustaqil fikrlash darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi "Falsafa" fanining predmeti, maqsad va vazifalari, falsafiy tafakkurning tarixiy rivojlanishi, borliq, rivojlanish, bilish, tafakkur, jamiyat, inson va qadriyatlar haqidagi nazariy bilimlarni baholashdan iborat. Dastur abituriyentlarda falsafiy tushuncha va kategoriyalarni tahlil qilish, turli falsafiy ta'limotlarni qiyoslash, muammo va hodisalarga dialektik yondashish, ilmiy va mantiqiy fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini aniqlashni nazarda tutadi. Shuningdek, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, mantiq, ijtimoiy falsafa, falsafiy antropologiya, aksiologiya, etika va estetika kabi asosiy yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan qo'llay bilish darajasi baholanadi.

Imtihonda abituriyentlar, avvalo, "Falsafa" fani bo'yicha egallagan bilim va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi, falsafiy muammolar yuzasidan mustaqil, izchil va mantiqiy fikr-mulohaza yurita olishi talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyentga "Falsafa" fani bo'yicha 2025-2026 o'quv yili imtihon dasturi doirasida quyidagi talablar qo'yiladi:

Falsafaga kirish: falsafaning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Falsafaning dunyoqarash shakli sifatidagi mohiyati, uning mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli jihatlari. Falsafaning asosiy funksiyalari, kategoriyalari va tadqiqot usullari. Falsafaning fan, din, madaniyat va jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan aloqadorligi. Falsafiy tafakkurning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Qadimgi Sharq falsafasi, "Avesto"dagi falsafiy-axloqiy g'oyalar, Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi Yunoniston falsafasi: naturfalsafa, Suqrot, Aflotun, Aristotel va ellinizm davri falsafiy qarashlari. O'rta asr G'arb falsafasi, patristika va sxolastika. O'rta asr musulmon Sharqi falsafasi, kalom, falsafa va tasavvuf yo'nalishlari. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk, Amir Temur va Alisher Navoiyning falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlari. G'arb Uyg'onish davri falsafasi va yangi davr

ratsionalizmi hamda empirizmi. F.Bekon, R.Dekart, J.Lokk, J.Berкли, D.Yum, J.J.Russo, I.Kant va G.V.F.Gegeľning falsafiy ta'limotlari. XIX-XX asrlar falsafasining asosiy yo'nalishlari: pozitivizm, pragmatizm, hayot falsafasi, ekzistensializm, fenomenologiya va hermenevtika. Borliq falsafasi: borliq tushunchasi va uning shakllari, substansiya, materiya va ong, harakat, makon va zamon. Rivojlanish falsafasi: dialektika, uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalari, metafizik va dialektik yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari, sinergetik yondashuv. Ong va tafakkur muammosi, ongning kelib chiqishi va ijtimoiy mohiyati, til va tafakkur munosabati. Bilish falsafasi: bilishning subyekt va obyekti, hissiy va aqliy bilish, haqiqat tushunchasi, haqiqatning obyektivligi, mutlaq va nisbiy haqiqat, amaliyotning bilishdagi o'rni. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari, ilmiy tadqiqot metodlari. Mantiq fanining predmeti, tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarish; deduksiya, induksiya va analogiya. Jamiyat falsafasi: jamiyatning yaxlit tizim sifatidagi mohiyati, ijtimoiy tuzilma, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayon. Inson falsafasi: insonning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy mohiyati, erkinlik, mas'uliyat va hayot mazmuni. Qadriyatlar falsafasi: qadriyat tushunchasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro munosabati. Etika va axloqning asosiy kategoriyalari, kasbiy va amaliy etika masalalari. Estetika, estetik ong, estetik faoliyat va go'zallik tushunchasi. Globallashuv, ekologik va boshqa global muammolarning falsafiy jihatlari, zamonaviy jamiyatda falsafiy tafakkurning ahamiyatini bilishi kerak.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'tdi yoki o'tmadi shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Falsafa fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Falsafa fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.


Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



Z. Rahmonov

Falsafa fanidan savollar

1. Falsafaning predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari va jamiyat hayotidagi ahamiyati.
2. Dunyogarash tushunchasi, uning tarixiy shakllari: mifologik, diniy va falsafiy dunyogarash.
3. Falsafaning asosiy funksiyalari va uning fan, din hamda madaniyat bilan o'zaro aloqalari.
4. Qadimgi Sharq falsafasi va "Avesto"dagi falsafiy-axloqiy g'oyalar.
5. Qadimgi Hindiston falsafiy maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiychilik va daosizm ta'limotlarining mazmuni.
7. Qadimgi Yunoniston naturfalsafasi va uning falsafiy tafakkur rivojidaagi o'rni.
8. Sugrot, Aftotun va Aristotelning falsafiy ta'limotlari.
9. Ellinizm va Qadimgi Rim falsafasining asosiy maktablari va g'oyalari.
10. O'rta asr G'arb falsafasi: patristika va sxolastikaning asosiy xususiyatlari.
11. O'rta asr musulmon Sharqi falsafasi: kalom, falsafa va tasavvuf yo'nalishlari.
12. Abu Nasr Forobiyning falsafiy ta'limoti va fozil jamiyat haqidagi qarashlari.
13. Abu Ali ibn Sinoning borliq, bilish va inson haqidagi falsafiy qarashlari.
14. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi va bilish masalalariga oid qarashlari.
15. Yusuf Xos Hojib va Nizomulmuluk asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalar.
16. Amir Temur va "Temur tuzuklari"dagi davlat, jamiyat, adolat va axloqqa doir qarashlar.
17. Alisher Navoiyning inson, axloq, adolat va komil inson haqidagi falsafiy qarashlari.
18. G'arb Uyg'onish davri falsafasining asosiy xususiyatlari va insonparvarlik g'oyalari.
19. Yangi davr falsafasida empirizm va ratsionalizm: F.Bekon va R.Dekart ta'limotlari.
20. J.Lokk, J.Berkli va D.Yunning bilish nazariyasiga oid qarashlari.
21. I.Kantning tanqidiy falsafasi va bilish haqidagi ta'limoti.
22. G.V.F.Gegelning dialektik falsafasi va uning asosiy tamoyillari.
23. XIX-XX asrlar falsafasida hayot falsafasi va ekszistensializmning asosiy g'oyalari.
24. Pozitivizm va pragmatizm falsafiy yo'nalishlarining mohiyati va o'ziga xos jihatlari.
25. Fenomenologiya va gernevikaning falsafiy mazmuni va bilish jarayonidagi ahamiyati.
26. Borliq tushunchasi, uning asosiy shakllari va falsafiy talqinlari.

27. Materiya, harakat, makon va zamon tushunchalarining falsafiy mazmuni.
28. Dialektika rivojlanish haqidagi ta'limot sifatida: uning tamoyillari va qonunlari.
29. Dialektikaning asosiy kategoriyalari va ularning o'zaro aloqadorligi.
30. Rivojlanishning dialektik va sinergetik modellarini taqqoslang.
31. Ong tushunchasi, uning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati hamda til va tafakkur munosabati.
32. Bilishning subyekti va obykti. Hissiy va aqliy bilish shakllari.
33. Haqiqat tushunchasi, uning obyektivligi, mutlaq va nisbiy haqiqatning o'zaro munosabati.
34. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari hamda ilmiy tadqiqotning asosiy metodlari.
35. Mantiq fanining predmeti. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish tafakkur shakllari sifatida.
36. Jamiyat falsafasi: jamiyatning yaxlit tizim sifatidagi tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlari.
37. Inson falsafasi: insonning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy mohiyati, erkinlik va mas'uliyat masalasi.
38. Qadriyat tushunchasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati.
39. Etika va estetikaning predmeti, asosiy kategoriyalari hamda inson hayotidagi ahamiyati.
40. Globallashtirish va zamonaviy global muammolarning falsafiy tahlili, ularni hal etishda falsafiy tafakkurning o'rni.